



# Journal of Natural Sciences

№3  
(2021 )

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАХРИР ХАЙЬАТИ</u>	<u>ТАХРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p><b>Бош мухаррир –</b> У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p><b>Бош мухаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова</b> PhD, доц.</p> <p><b>Масъул котиб-</b> Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Худанов У – Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.</li><li>2. Кодиров Т- к.ф.д, профессор</li><li>3. Абдурахмонов Э – к.ф.д., профессор</li><li>4. Султонов М-к.ф.д, доц</li><li>5. Рахмонкулов У-б.ф.д., проф.</li><li>6. Хакимов К –г.ф.н., доц.</li><li>7. Азимова Д- б.ф.н.</li><li>8. Мавлонов Х- б.ф.д., доц</li><li>9. Юнусова Зебо – к.ф.н., доц.</li><li>10. Гудалов М- фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)</li><li>11. Мухаммедов О- г.ф.н., доц</li><li>12. Хамраева Н- фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)</li><li>13. Рашидова К- фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц</li><li>14. Мурадова Д- фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц</li></ol>
<p><b>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</b></p>	
<p>Журнал 4 марта чикарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Sciences-электрон журнали

[/http/www/natscience.jspi.uz](http://www/natscience.jspi.uz)

## MAHALLIY XO’JALIKLARDA QOPLAMALARING AHAMIYATI

*Isomiddinov J.Q., Assistent*

*Sattarova. G.Y., Magistr*

*Sharopova L.Y., Magistr*

Jizzax Politexnika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qishloq xo’jaligida ishlataladigan asbob uskunalaridagi korroziya, korroziyaning turlari va ularni oldini olish, korroziyadan himoya qilish uchun ruxli qoplamlar yoritib berilgan.

**Kalit so’zlar:** korroziya, himoyalı, dekorativ-himoyalı va maxsus yoki funksional qoplamlar, kislotalar, ishqorlar va elektrolitlar

**Аннотация.** В статье описаны коррозия в сельхозтехнике, виды коррозии и цинковые покрытия для их предотвращения и защиты от коррозии.

**Ключевые слова:** коррозионные, защитные, декоративно-защитные и специальные или функциональные покрытия, кислоты, щелочи и электролиты.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi” to’g’risidagi PF-4947-son Farmoni hamda 2019 yil 8 oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”gi PF-5847-son Farmonlarida yangi avlod adabiyotlarini yaratishga alohida to’htalib o’tilgan. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin xalq xo’jaligining barcha tarmoqlari qatori, kimyo sanoatida ham tubdan o’zgartirish, mahsulot sifatini oshirish, unga chet el sarmoyasini jalb etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Ma’lumki, jahonda ishlab chiqarilayotgan metalning anchagina(10-15%) qismi ularning korroziyalanishi va metall buyumlarning xizmat qilish muddatidan ancha oldin fizikaviy yemirilishi tufayli yaroqsiz holatgi kelib qoladi. Shu munosabat bilan eng muhim masalalardan biri metalni maksimal darajada iqtisod qilish va uni yemirilishdan saqlash hisoblanadi. Elektrolitik metall bilan qoplash (galvanotexnika)dan metallarni korroziyadan himoya qilish, himoya-dekorativ ishlov berish, mexanik yemirilishga qarshilikni va sirt qattiqligini oshirish, antifriksion xossalarni berish, qaytaruvchanlik qobiliyatini va boshqa maqsadlar (galvanostegiya)da foydalaniadi.

Buyumlardan foydalanish xarakteristikalari talablariga bog`liq ravishda qoplamlar 3 turga bo`linadi:

**Himoyalı qoplama** detallarni turli xil muhitlarda korroziyadan saqlash uchun ishlatiladi.

**Dekorativ-himoyalı** qoplamlar buyumlarni bir vaqtning o`zida korroziyadan saqlash va ularga dekorativ ko`rinish berish uchun ishlatiladi.

**Maxsus yoki funksional** qoplamlar buyumlar sirtiga alohida xossalar, ya’ni elektr o`tkazuvchanlik, qattiqlik, yemirilishga bardoshlilik, antifriksion, magnitli va boshqa xossalarni berish uchun ishlatiladi.

Rux – och kulrang ikki valentli metall bo`lib, uning atom massasi 65,4 m.a.b. zichligi 7,13 g/sm<sup>3</sup>, suyuqlanish harorati 419 °C ga teng. Ruxning solishtirma elektr qarshiligi 0,055 Om\*mm, issiqlik o`tkazuvchanligi 125,6 Vt/(m\*K) ga teng. Quruq havoda rux va rux qoplamasi juda barqaror bo`lib, nam havo va qattiq suvda u ruxni parchalanishdan himoya qiluvchi oq rangli oksidli va karbonatli pylonka bilan qoplanadi. Rux dengiz suvida korroziyanishga ancha chidamli. Rux kislota va konsentrangan ishqor eritmalarida tez parchalanadi, vodorod sulfidi va sulfidli gazlar bilan oson reaksiyaga kirishadi.

Ruxning standart potensiali -0,76 V ga teng. Ruxli qoplamlar po`lat buyumlarni elektrokimyoiy usulda himoya qiladi. Ruxli qoplamlar po`lat buyumlarni korroziyadan saqlash uchun xizmat qiladi. Ruxli qoplalmalarning xizmat muddati qoplama qalinligi va undan foydalanish sharoitiga bog`liq. Qishloq joylarda ruxning korroziyanishi 1,5 mkm/yil ni, shaharlarda esa atmosfera sanoat gazlari bilan ifloslanganligi tufayli 6-8 mkm/yil ni tashkil etadi.

Ilovada ishlash sharoiti va qatlami qalinligiga bog`liq ravishda ruxli qoplamlardan foydalanish sohalari ko`rsatilgan.

Foydalanish sharoiti	S, mkm	Qo`llanilishi
Yengil	3-6	Qadami 0,4 mm gacha bo`lgan mustahkamlovchi rezbali detallar
Yengil	6-9	Dastgoh va asboblarning detallari
O`rtacha, qattiq	9-12	Qadami 0,4 mm gacha bo`lgan mustahkamlovchi rezbali detallar
O`rtacha	15-18	Turli detallarni korroziyadan saqlash
O`rtacha, qattiq	24-30	
Qattiq, juda qattiq	36-42	

Ruxlashda asosan kislotali va ishqoriy elektrolitlardan foydalaniladi. Kislotali ruxlash elektrolitlariga sulfatli, vodorod ftoridli, xloridli, benzo sulfatli, ishqoriy larga esa sianidli, silikatli, ammiakli, pirofosfatli polietilen poliaminli elektrolitlar kiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq xo’jaligidagi asbob uskunalar uchun qoplamlar muhim ahamiyatga ega. Qoplamaning uzoq vaqt xizmat qilishi qoplamaning ishlash sharoiti va qatlamning qalinligi muhim ahamiyatga ega ekan. Bundan tashqari atmosferadagi gazlar ham korroziyanishga oz miqdorda bulsada o’z ta’sirini ko’rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkar Mirziyoev tomonidan 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustivor yo’nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi” to’g’risidagi PF-4947-son Farmoni
2. Вирбилис С. Гальванотехника ля мастеров. Справочник. М.:Металлургия, 1990. 208 стр
3. Vaqqosov S.S. Ro’zmatov I. “Metall va kompozitsion qoplamlar” o’quv qo’llanma JizPI 2015 yil
4. Парсаева, Н. Ж., Курбанов, З. Х., & Бобокулова, Ш. (2021). Исследование физико-механических свойств бетонных изделий используемые промышленные отходы. *Science and Education*, 2(5), 417-423.
5. Гулбоев, Я. И., & Исомиддинов, Ж. (2021). КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ И МОЛЕКУЛЯРНАЯ СТРУКТУРА ДИМЕРА УРАНА. *Журнал естественных наук*, 1(2).
6. Karimova, S. B. (2021). TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING ROLI. *Журнал естественных наук*, 1(2).
7. Sattarova, G. Y., & Sultonmurodov, D. S. (2021). O‘zbekiston Respublikasi rivojlantirishda korroziyadan himoya qilishning neft va gaz bilan ta’minalash tizimida Kimyo va kimyoviy texnologiya fanining o’rni va ahamiyati haqida. *Журнал естественных наук*, 1(2).
8. Исомиддинов, Ж., & Нурмонов, С. (2020). БЕНЗОТРИАЗОЛНИ ГОМОГЕН СИСТЕМАДА КАТАЛИТИК ВИНИЛЛАШ. *Журнал естественных наук*, (1).
9. Isomiddinov, J. (2021). ALYUMINIY VA UNING QOTISHMALARIDAGI OKSIDLI PLYONKALARLING HIMOYAVIY XUSUSIYATLARINI OSHIRISH. *Журнал естественных наук*, 1(3).
10. Яхшилик Ирсалиевич Гулбаев, Жавохирмирзо Қамариддин Үгли Исомиддинов, & Мижгона Саттор Қизи Дадоева (2020). СИНТЕЗ

СЕМИКОРБАЗОНА ПАРАОКСИБЕНЗОАЛЬДЕГИДА С МОЛИБДENOM.  
Science and Education, 1 (9), 100-104.

11. Гулбаев, Я. И., Исамиддинов, Ж. К., & Нореков, У. Д. (2021). СИНТЕЗ И ЭЛЕМЕНТНОГО АНАЛИЗА КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ ТИОСЕМИКАРБАЗОНА МЕТИЛЭТИЛКЕТОНА С МОЛИБДENOM. *Science and Education*, 2(1).

12. Internet ma'lumoti [www.ZivoNet.uz](http://www.ZivoNet.uz).